



TAX ISSUES AND CRIMINAL LEGISLATION OF THE TURKESTAN ASSR

Malohat Roxataliyevna Umirzakova

Independent researcher at NamSU

Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Turkestan, Soviet power, Criminal code of the RSFSR, article, special campaign, tax system, uyezd, decree, regulatory legal act.

Received: 19.10.25

Accepted: 20.10.25

Published: 21.10.25

Abstract: This article discusses the introduction of the Criminal Code of the RSFSR in Turkestan, adopted by the RSFSR CEC, its publication on April 20, 1920 as the “Basic manual on the Criminal law of the Turkestan autonomous republic of the RSFSR”, and its entry into force on the territory of Turkestan on May 21, 1922 by the decision of the Turkestan Central Executive Committee. It also discusses the inclusion of acts such as violation of tax payment procedures and tax evasion in the category of crimes related to state administration, the types of punishments and liability established for them and information on its results, based on archival sources.

TURKISTON ASSR JINOYAT QONUNCHILIGIDA SOLIQQA OID MASALALAR

Malohat Roxataliyevna Umirzakova

NamDU mustaqil tadqiqotchisi

Namangan, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Turkiston, sovet hokimiyati, RSFSR Jinoyat kodeksi, modda, maxsus kompaniya, soliq tizimi, uyezd, dekret, normativ-huquqiy hujjat.

Annotatsiya: Mazkur maqolada RSFSR MIQ hamda XKS tomonidan qabul qilingan RSFSR JKning Turkistonda joriy etilishi, “RSFSRning Turkiston avtonom respublikasi jinoyat huquqi bo'yicha Asosiy qo'llanma” sifatida 1920 yil 20 aprelda nashr etilishi, 1922 yil 21 maydan Turkiston MIQ ning qaroriga ko'ra uning Turkiston hududida amal qilishi yoritilgan. Shuningdek, soliq to'lash tartiblarini buzish va soliq to'lashdan bo'yin tovlash kabi harakatlarning davlat

boshqaruviga oid jinoyatlar turkumiga kiritilishi, ularga nisbatan belgilangan jazo turlari va javobgarlik masalalari, amalda bo'lgan JKning tegishli moddalarini qo'llash va uning natijalariga oid ma'lumotlar arxiv manbalariga asoslangan holda yoritilgan.

НАЛОГОВЫЕ ВОПРОСЫ В УГОЛОВНОМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ ТУРКЕСТАНСКОЙ АССР

Малохат Рохаталиевна Умирзакова
Независимый исследователь НамГУ
Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Туркестан, советская власть, Уголовный кодекс РСФСР, статья, спецкампания, налоговая система, уезд, указ, нормативный правовой акт.

Аннотация: В статье рассматривается введение в действие в Туркестане УК РСФСР, принятого ЦИК РСФСР и СНК, издание данного нормативного акта 20 апреля 1920 года под названием «Основное руководство по уголовному праву Туркестанской АССР» и вступление его в силу на территории Туркестана с 21 мая 1922 года постановлением ЦИК Туркестана. Также на основе архивных источников освещаются вопросы отнесения к преступлениям в сфере государственного управления таких деяний, как нарушение порядка уплаты и уклонение от уплаты налогов, основания для применения соответствующих статей действующего Уголовного кодекса и информация о ее результатах.

Kirish. Soliqlar davlat iqtisodiyotining asosiy tayanchlaridan biri hisoblanib, uning taraqqiy topishini, rivojlanishini soliq va to'lovlarsiz, soliq siyosatisiz tasavvur etish qiyin. Mazkur maqolada soliqqa tortish va undirish, jazo turlari, javobgarlikka tortish masalalarining jazo qo'llashda normativ-huquqiy asos hisoblangan va Turkiston hududida amalga kiritilgan RSFSR JK asoslanganligi bayon etiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Turkiston ASSRda soliqqa tortish va undirish masalalariga doir tarixiy adabiyotlarni ikki davr: sovet davri va mustaqillik yillarida yaratilgan tadqiqotlarga ajratib o'rganish mumkin. Sovet davri (1917-1924-yillar) da yaratilgan tarixiy adabiyotlar orasida XX asr 20-30-yillarida davlat va partiya arboblari T.Risqulov, I.Xidiraliyev, N.Turaqulov, G.Safarov asarlari muhim ahamiyatga ega[1]. Mustaqillik yillarida Q.Rajabovning nomzodlik, R.Abdullayev, D.Ziyoyeva, Q.Rajabov, A.Rasulov, Sh.Hayitov, U.Jumayev,

M.Haydarov, M.Rahmatov, N.Rejabboyevlarning D.Toshmatovning doktorlik dissertatsiyalarida Turkiston o'lkasidagi soliq siyosati tarixining bazi tomonlari yoritilgan[2]. Turkistondagi soliqqa tortish va undirish, javobgarlik masalalarining ayrim jihatlariga Qirg'iziston, Tojikiston, Qozog'iston hamda Rossiya Federatsiyasi tarixiga oid e'lon qilingan bazi fundamental kitoblar va kollektiv monografiyalarda to'xtab o'tilgan. Xususan, MDH davlatlarida so'ngi yillarda chop etilgan A.A.Maslennikova, A.A.Kabanov, T.I.Kim, I.V.Sibotina, I.A.Selivanovskaya, J.J.Kenjebaykizi, S.V.Korponenko, D.A.Mirpochoyev, A.S.Sokolovning monografiyalarida sovet rejimi va bolsheviklar tomonidan olib borilgan soliq siyosati va uning ayanchli oqibatlari manbalar asosida yoritilgan[3]. Mavzuni ochib berishda qiyosiy-tahlil, manbalar tahlili, fanlararo metodlardan foydalanildi. Shu bilan birga tarixiylik, davriylik va xolislik tamoyili asosida mavzuni yoritib berishga harakat qilindi.

Natijalar va muhokama. Oktabr to'ntarishidan keyin(1917-yil) Turkiston avtonom respublika sifatida RSFSR tarkibiga kiritilib, RSFSR MIQ hamda XKS tomonidan qabul qilingan me'yoriy hujjatlar amaliyoti o'lkada to'g'ridan-to'g'ri joriy etilgan. Xususan, Markazning Jinoyat huquqini umumiy va maxsus qismiga oid dekret, qarorlari hamda aktlari bevosita amalga joriy qilingan[4:26]. 1919 yilning dekabr oyida RSFSR jinoyat huquqi bo'yicha nashr etilgan qo'llanma "RSFSRning Turkiston avtonom respublikasi jinoyat huquqi bo'yicha Asosiy qo'llanma" sifatida 1920-yil 20-aprelda nashr etildi. 1922-yil 24-mayda RSFSR ning Jinoyat kodeksi qabul qilinib, Turkiston MIQ ning qarori ko'ra uning Turkiston hududida amal qilishi mazkur yilning 21-iyulidan etib belgilandi[5:406]. Kodeksning umumiy qismida kodeksning amal qilish doirasi, javobgarlik, jinoyat tushunchasi kabi normalar bayon qilingan. Maxsus qismi esa davlatga qarshi jinoyatlar, harbiy va mansabdorlik jinoyatlari, dinni davlatdan ajratish to'g'risidagi qonunlarni buzishga oid jinoyatlar, mulkiy hamda xalqning salomatligi, jamoat xavfsizligini va oilaviy tartibni saqlash qoidalarini buzish, mahalliy maishiy jinoyatlarga oid boblardan tashkil topgan[6:953]. Turkistonda 1917-1918-yillardagi og'ir iqtisodiy vaziyatning yuzaga kelishi, g'alla yetishmasligi, qurqoqchilik va uning oqibatida ocharchilikning hukm surishi o'lkada barcha sa'y-harakatlarni ta'minot masalasiga qaratishga majbur qildi. Turkiston iqtisodiy boshqaruvi jihatdan Markaz manfaatlariga yo'naltirilgan bo'lsada, o'lkada Rossiya imperiyasi davridan meros bo'lib o'tgan soliq tizimi aholi ta'minoti uchun yechim sifatida yangi turdagi soliqlarni amalga joriy etish bilan yuritilayotganligiga qaramay, uning katta qismi sovet armiyasi va ishchilar sinfi manfaatlari hamda sovet hukumatini mustahkamlashga qaratilgan edi. Mazkur manfaatlar doirasida sovet hokimiyati soliqlarni o'z vaqtida va uzluksiz undirish maqsadida soliqlarni yig'ish va jazo qo'llash huquqini ayrim tashkilotlar vakolatiga kiritdi. Soliqlarni to'lashdan bosh tortganlar uchun jazo qo'llashning huquqiy-normativ asosi sifatida RSFSR JK tegishli moddalariga tayandi. Jumladan, soliq to'lash tartibini buzish davlatga qarshi jinoyatlar darajasida: ommaviy tarzda soliqlarni

to'lashdan bosh tortganlik; yakka tartibda soliqlarni to'lashdan bosh torgan yoki o'z vaqtida to'lamagan fuqarolar; soliqqa tortish jarayonlarida mol-mulkni yashirgan va miqdorini to'g'ri ko'rsatmagan hamda harbiy majburiyatlardan (harbiy majburiyatlar pul shaklida ham undirilgan-U.M.) bosh torganlik belgilangan. Aynan, soliqqa oid jinoiy javobgarlik RSFSR JK bir nechta: 62, 69, 78, 79, 79 moddaning a bandi, 80, 83, 84, 86, 108, 139 moddaning a bandlarida belgilangan edi[7:24]. Soliqlarni to'lamaganlik va soliq solish obyektlarini yashirganlik uchun mazkur kodeksning 78, 79 va 80 moddalar bilan javobgarlikka tortish nazarda tutilgan edi. Keyinchalik 79 va 139 moddalarning a bandlari (merosdan undiriladigan soliq va aktsizlar-U.M.) qo'shimcha sifatida kiritildi. Soliq sohasidagi jinoyatlar uchun qattiq tartibda izolyatsiya qilingan holda, ozodlikdan mahrum qilish yoki mol-mulkini talon-taroj qilish va hattoki, RSFSR JK ning 62,69,83 moddalarida oliy jazo-o'lim jazosi ham belgilangan edi [7:26]. Ayrim moddalarda soliq sohasidagi jinoyatlarni belgilariga qarab, javobgarlik doirasi og'irroq keltirilgan. Jazo qo'llashda qayta jinoyat sodir etish, soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash yoki majburiyatlarni bajarishdan bosh tortish kabi belgilar e'tiborga olinar edi. Turkistonda amalda bo'lgan RSFSR JKning davlat boshqaruviga qarshi jinoyatlar turkumiga kiritilgan, soliqlarni to'lamaganlik va soliq solish obyektlarini yashirganlik uchun tegishli moddalar bilan javobgarlikka tortish uchun asos sifatida "Soliq solinishidan yashirilgan yer va mol-mulklarni, hayvonlarni hisobini yuritish kampaniyasi" tashkil etilgan. Shunday kampaniyalar davomida yig'ilgan ma'lumotlar asosida javobgarlikka tortishga oid hujjatlar rasmiylashtirilgan. Masalan, Andijon oblast Qo'rg'ontepa volostining soliq inspektori T.Karimov tomonidan, 1922-yilning 24-iyulida Qo'rg'ontepa va Sultonobod rayonlarida soliq solinishidan yashirilgan yerlarni hisobini yuritish kampaniyasi davomida, yashirilgan yerlar va hayvonlar to'g'risida ma'lumotlar aniqlangan[8:22].1922 yilning avgust oyida Yettisuv oblastining Qoraqolpoq uездida 619 desyatina ekin maydonlari, 1986 ta yirik shohli hayvonlar, 25 707 ta qo'ylarni soliqlar ko'payishidan qo'rqib yashirilgan. Lepinsk uездida esa 2329 desyatina somonli (senokosav), 2662 desyatina boshqoqli (donli) ekinlar, 8079 ta bosh yirik shohli hayvonlar bolasi bilan, 154 ta cho'chqa, 4286 ta qo'y va echkilar, 935 ta tuyalar, 2917 ta otlar, 485 ta buqalar yashirilgan va ro'yxatga oldirilmagan.[8:26]. Afsuski bu sohada jazo choralari ko'zda tutilsa-da, soliqlarning og'ir yuki dehqonlarni ekin yerlarini va hayvonlarini yashirishga majbur qilgan.Soliqlarni to'lay olmaydiganlar nafaqat Turkiston o'lkasida, balki Rossiya hududlarida ham haddan ziyod ko'payib borgan. Chunki barcha hududlarda ahvol birdek og'ir edi, shu sababli soliq to'lovchi oddiy xalqning turmush tarzida aytarli farq yo'q edi. Masalan, Kubanda ilojisizlikdan soliq to'lamagan fuqarolarning soni ko'payib ketganligi tufayli, 30-aprel 1923-yilda tasdiqlangan "Yagona natural soliqni to'lamaganlik uchun amnistiya" to'g'risidagi Dekretga asosan Soliq sudlari tomonidan ozod etilgan[9:20] .

Xulosa. 1922-yilda qabul qilingan RSFSR JK 1926-yilga qadar RSFSR va uning tarkibiga kirgan respublikalarda, xususan, TASSRda ham amal qildi. Soliq borasidagi huquqbuzarliklarni ko‘rib chiqish davomida ularni yuzaga kelishidagi shart-sharoitlar, sabablar qisman o‘rganilib ba‘zan hisobga olingan bo‘lsada, aksariyat hollarda soliq to‘lovchi aholi vakillarini huquqlari inobatga olinmagan holda jazo belgilashda huquqiy asos sifatida qo‘llanib kelindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Рыскулов Т. Революция и коренное население Туркестана. Сборник статей, докладов, речей и тезисов с предисловием автора. Часть I. 1917-1919 гг.-Ташкент: Узбекгосиздат, 1925.(Ryskulov T.Revolution and the indigenous population of Turkestan.1925y); Хидыралиев И.Басмачество и народное хозяйство Ферганы// Военная мысль и революция. 1923.-№4.-С.43-49.(Khidiraliyev I.Basmachism and the nashional economu of Fergana.1923y); Дервиш.[Туракулов Н.] Ферганская проблема// Военная мысль.Кн.П.-Ташкент, 1921.-С.108-118.(Dervish.[Turakulov N.]Fergana problem. 1921); Сафаров Г. Колониальная революция (Опыт Туркестана).-Москва: Госиздат, 1921.(Safarov G.Colonial revolution.-Moskow,1921y).

2. Radjapov Q.K. Farg‘ona vodiysidagi istiqloлchilik harakati: mohiyati va asosiy rivojlanish bosqichlari (1918-1924-yillar), tarix fani nomz.diss.-Toshkent, 1995; (); Абдуллаев Р.Национальные политические организации Туркестана в 1917-1918 годы. Автореф. дис....канд.ист.наук.-Ташкент, 1998.(Abdullaev R. National political organizations of Turkestan in 1917-1918y. -Tashkent, 1998); Зияева Д.Х.Национально освободительное движение в Туркестане в историографии 20 века (проблемы изучения истории восстания 1916 года и движения «истиклолчилик» (1918-1924 гг.) -Ташкент, 1998.(Ziyaeva D.Kh. The national liberation movement in Turkestan in the historiography of the 20th century (problems of studying the history of the uprising of 1916 and the Istiklolchilik movement of 1918-1924y).-Tashkent,1999); Xaydarov M.Turkistonda sovet hokimiyatini mrkazlashtirish siyosati oqibatlar (1917-1924 yillar). Tarix fanlari nomz.diss. - Tashkent, 1998.(Khaidarov M. Consequences of the policy of centralization of Soviet power in Turkestan (1917-1924y). - Tashkent, 1998); Набиев Ф. Проблемы и противоречия социальной политики в Туркестане (1917-1924 гг). Дисс.докт.ист.наук.-Ташкент, 1995; Агзамходжаев С. Туркистон мухторияти: борьба за свободу и независимость (1917-1918 гг.): Автореф. дис.докт. ист. наук.-Ташкент, 1996.(Nabiev F. Problemy and anti-social politics in Turkestan (1917-1924y). -Tashkent, 1995.(Agzamkhodjaev S. Turkestan autonomy: struggle for freedom and independence (1917-1918y) - Tashkent, 1996); Rasulov A. Turkiston va Volgabo‘yi,Uraloldi xalqlari o‘rtasidagi munosabatlar tarixi (1917-1924 y) tarix fan.dokt.diss.-Toshkent, 2005.(Rasulov A. Turkistan and Volgaboyi, history of relations between Uralaldi peoples (1917-1924y)-Tashkent, 2005); Jumaev U. Rossiya

imperiya­si­ning Turkistonda­gi soli­q siyosatining shakllanishi: asosiy bosqichlari va taraqqiyoti. Tarix fanlari nomz.diss. - Tashkent, 2012.(Jumaev U. The formation of the tax policy of the Russian empire in Turkestan: the main stages and development. -Tashkent, 2012); Raxmatov M. Turkistonda­gi ocharchilik va uning oqibatlati (1917-1924y). Tarix fanlari bo'yicha fal.dok (PhD)diss.-Toshkent, 2019.(Rahmatov M. Famine in Turkestan and its consequences (1917-1924y).-Tashkent,2019); Rejabboev N.Sovet hokimiyatining Turkistonda­gi oziq-ovqat siyosati va uning oqibatlati (1917-1924 y). Tarix fanlari bo'yicha fal.dok (PhD)diss.-Toshkent, 2019.

(Rejabboev N. The food policy of the Soviet government in Turkestan and its consequences (1917-1924y). -Tashkent, 2019.

3.Масленникова А.А. Налоговая политика советской России в 1917-1929 гг. (историка правовой анализ). Атореф.дисс. на соис.учен.степ.канд.юрид.наук.-Нижний новгород, 2004.-29с. (Maslennikova A.A. Tax policy of Soviet Russia in 1917-1929 (historian of legal analysis). -Nizhny Novgorod, 2004); Кабанов А.А.Налоговая политика и налоговая идеология в эволюции государственно-правовой системы России с 1917 по 1992 гг. Атореф.дисс. на соис.учен.степ.канд.юрид.наук.-Санкт-Петербург, 2008.-21с.(Kabanov A.A. Tax policy and tax ideology in the evolution of the state-legal system of Russia from 1917 to 1992. -Saint-Petersburg, 2008);

Ким Т.И. Советская государственная налоговая политика в период НЕПА 1921-1929 гг. Атореф.дисс. на соис.учен.степ.канд.юрид.наук.-Краснодар,2011. (Kim T.I. Soviet state tax policy during the NEPA period 1921-1929y. -Krasnodar, 2011); Сибботина И.В. Налоговое законодательство и налоговая политика в годы НЭПа (1921-1930 гг). Атореф.дисс. на соис.учен.степ.канд.юрид.наук.-Москва., 2008.-28с. (Sibbotina I.V. Tax legislation and tax policy in the years of the NEP (1921-1930).-Moscow, 2008.); Корпонец С.В. Податкова политика Ряданской влады в Украинском селу у видбудовчий период 1921-1925 гг. Атореф.дисс. на соис.учен.степ.ист. наук.-Донецк, 2000.-20с.(Korponenko S.V. Podatkova policy of Ryadanskoe vldy in the Ukrainian village near Vidbudovchiy period 1921-1925. -Donetsk, 2000); Мирпочоев Д.А. Налоговая политика Республики Таджикистан в условиях перехода к рыночной экономике. Атореф.дисс. на соис.учен.степ.канд.эконом. наук.-Краснодар, 2007.-24с. (Mirpochoev D.A. Tax policy of the Republic of Tajikistan in the transition to a market economy. -Krasnodar, 2007.); Соколов А.С. Финансовая политика советского государства в годы НЭПА 1921-1929 гг. Атореф.дисс. на соис.учен.степ.док.ист.наук.-Москва, 2006.-36с.(Sokolov A.S. The financial policy of the Soviet state in the years of the New Economic Policy of 1921-1929 y. -Moscow, 2006 y).

4.Rasulov O.X. Sovet jinoyat huquqi. Umumiy qism.-Toshkent. O'qituvchi. 1969, - B.26. (Rasulov O.X. Soviet criminal law.1969 y).

5. Сулайманова Х.С. История советского государства и права Узбекистана. II часть. –Ташкент: АН Уз.ССР, 1960. 600-стр. (Sulaymanova K.S. History of the Soviet state and the law of Uzbekistan 1960 y)

6. Имамов Р. Ўзбекистонда жиноят қонунчилиги тарихи (XIX аср ўрталари ва XX асрнинг 90-йиллари). SCIENTIFIC PROGRESS/ VOLUME ISSUE.1.2021. 949-956-р. (Imamov R. History of criminal legislation in Uzbekistan (mid-19th century and 1990s of the 20th century) 2021 y).

7. Уголовный кодекс РСФСР. Москва. 1922 г. (Criminal Code of the RSFSR. 1922 y).

8. Andijon viloyat davlat arxivi, 1-fond, 1-ro'yxat, 22-ish, 22, 26-varaqlar. (State archive of Andijan region, 1-f.).

9. Масленникова А.А. Налоговая политика Советской России в 1917-1929 гг. Автореф. дисс... канд. юрид. наук.- Нижний Новгород., 2004. 29.- с. (Maslennikova A.A. Tax policy of Soviet Russia in 1917-1929 (historian of legal analysis). -Nizhny Novgorod, 2004 y).